

AMALIY MASHG'ULOT-5

Mavzu: Ayollar to'g'ri bichimli yubkasi andozasini tayyorlash, gazlamaga joylashtirish va gazlama sarfini hisoblash.

To'g'ri bichimli yubka chizmasi.

Turli fasondagi yubkalarning loyihasini yaratish uchun ikki chokli to'g'ri bichimli yubka loyihasining asosi ishlatiladi. Bu yubkani loyihalash uchun gavddadan olingan quyidagi o'lchovlar kerak bo'ladi.

BIYaA = 38 sm QBI = 1 sm

YuU = 72 sm OrBU = 42 sm

BkYaA = 53 sm QBk = 2 sm


Yubkaning to'r qismi

Qog'ozning chap tomon burchagiga BI nuqta qo'yilib, undan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi.

1. $BI E = YuU = 72$ sm (yubka uzunligi).
2. $BI Bk = OrBU : 2 - 1 = 42 : 2 - 1 = 20$ sm (bo'ksagacha bo'lgan oraliq).
3. BI, Bk, E nuqtalaridan gorizontallar o'tkaziladi.
4. $Bk Bk1 = BkYaA + QBk = 53 + 2 = 55$ sm (yubkaning bo'ksa chizig'idagi kengligi)
5. Bk1-nuqtasidan vertikal o'tkaziladi; B11, E1, Bk1 nuqtalar belgilanadi.
6. $Bk Bk2 = (BkYaA + QBk) : 2 - 1 = (53 + 2) : 2 - 1 = 26,5$ sm (yon chokining o'rni).
7. Bk2 nuqtadan yuqoriga va pastga vertikal o'tkaziladi vertikalning bel va etak chiziqlari bilan kesishgan nuqtalari B12, E2 bilan belgilanadi. Yubkaning old va orqa bo'laklari
8. $Bk Bk3 = 0,4 Bk Bk1 = 0,4 \times 55 = 22$ sm (Orqa bo'lak vitochkasining o'rni).
9. Bk3 nuqtadan yuqoriga vertikal o'tkaziladi va bel chizig'i bilan kesishgan joyga B13 nuqta qo'yiladi.
10. $Bk1 Bk4 = 0,4 Bk1 Bk2 = 0,4 \times 26,5 = 10,6$ sm (Old vitochkaning o'rni).
11. Bk4 nuqtadan vertikal o'tkaziladi va bel chizig'i bilan kesishgan joyga B14 nuqta qo'yiladi.
12. $Summa V = (BkYaA + QBk) - (BIYaA + QBI) = (53 + 2) - (38 + 1) = 16$ sm (vitochkalarning umumiy qiymati).
13. Vitochkalarning taqsimlanishi: a) $BI5 BI6 = 0,6 \times summa V = 9,6$ sm (yon tomon vitochkasi); b) $BI7 BI8 = 0,2 \times summa V = 3,2$ sm (orqa bo'lak vitochkasi); v) $BI9 BI10 = 0,2 \times summa V = 3,2$ sm (old bo'lak vitochkasi). Bu qiymatlar yarmini vitochkalarning o'rta chizig'idan bir tomonga, qolgan yarmini ikkinchi tomonga o'lchab qo'yiladi.
14. Beldagi nuqtalar orqa bo'lak va old bo'lak vitochkalarining pastki uchlari bilan to'g'ri chiziqlar orqali birlashtiriladi.

15. $B_{15} B_{151} = B_{16} B_{161} = 0,5-1$ sm (bel chizig'i).

16. B_{151} nuqta B_1 nuqta bilan B_{161} nuqta B_{11} nuqtalar bilan birlashtiriladi bel vitochkalari shu chiziqqacha davom ettiriladi.



44-rasm. To'g'ri bichimli yubka chizmasi.